



XALQ TA'LIM TIZIMI MUASSASALARIDA BYUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Narbekova Gulruh Davronbayevna

Toshkent moliya instituti mustaqil izlanuvchisi, gulrukhmarbekova@gmail.com

ORCID: 0000-0002-7078-2226

THEORETICAL PRINCIPLES OF ORGANIZING THE ACCOUNT OF EXTRA-BUDGET FUNDS IN THE INSTITUTIONS OF THE PUBLIC

Narbekova Gulruh Davronbayevna

Independent researcher of the Tashkent Financial Institute, gulrukhmarbekova@gmail.com

ORCID: 0000-0002-7078-2226

JEL Classification: M1, M4, M41

Annotatsiya. Ma'lumki, byudjet tashkilotlari byudjet moliyalashtirishlaridan tashqari o'zlari qo'shimcha daromad olish huquqiga egadirlar. Ushbu qo'shimcha mablag'larining byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari hisoblariga to'liq tushishi va ushbu mablag'lardan foydalanishda byudjet tashkilotlari hodimlarining manfaatlarini oshirish, byudjet tashkilotlariga biriktirilgan mulk va byudjet tashkilotlarining boshqa imkonlaridan keng foydalanishni rag'batlantiradi, iqtisodiy o'sishga dalda beradi va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mazkur maqolada g'aznachilik hamda xalq ta'lim tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'larning shakllanishi va harakati, ularning har biri bo'yicha alohida hisob ishlarini yuritish, mablag'larning sarflanishini qat'iy nazoratga olish hamda hisobotlarda alohida holda aks ettirilishi zarurligi nazariy jihatdan o'rganilgan. Xalq ta'lim tizimi muassasalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish, xalq ta'lim tizimiga tegishli bo'lgan markazlashtirilgan buxgalteriyaga qamrab olingan muassasalar va buxgalteriya shtati mavjud bo'lgan xalq ta'limi muassasalarida hisobotlarni tuzishning o'ziga xos jihatlari ularning bir-biridan farqi ko'rib chiqilgan. Xalq ta'lim tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar hisobini tashkil etishni takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Abstract. It is known that budget organizations have the right to receive additional income in addition to budget funding. The full transfer of these additional funds to the extra-budgetary accounts of budget organizations and the increase of the interests of the employees of budget organizations in the use of these funds, encourages the wide use of property attached to budget organizations and other opportunities of budget organizations, encourages economic growth and expands opportunities for further development of entrepreneurship. In this article, the formation and movement of extra-budgetary funds in the treasury and institutions of the public education system, keeping separate accounts for each of them, strict control over the spending of funds, and the need to reflect them separately in reports are theoretically discussed. Organization and maintenance of accounting in institutions of the public education system, institutions included in the centralized accounting belonging to the public education system, and the specific aspects of reporting in public education institutions with an accounting state are different from each other. difference is considered. A scientific proposal and practical recommendations have been developed in connection with the improvement of the organization of the accounting of extra-budgetary funds in the institutions of the public education system.

Kalit so'zlar. axborot, xalq ta'lim tizimi muassasalari, byudjetdan tashqari jamg'arma, daromad, haqiqiy xarajatlar, kassa xarajatlari, pul mablag'lari.

Key words. information, institutions of the public education system, non-budgetary fund, income, real expenses, cash expenses, funds

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjet tashkilotlari byudjet moliyalashtirishlaridan tashqari o'zlari qo'shimcha daromad olish huquqiga egadirlar. Ushbu qo'shimcha mablag'larining byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari hisoblariga to'liq tushishi va ushbu mablag'lardan foydalanishda byudjet tashkilotlari hodimlarining manfaatlarini oshirish, byudjet tashkilotlariga biriktirilgan mulk va byudjet tashkilotlarining boshqa imkonlaridan keng foydalanishni rag'batlantiradi, iqtisodiy o'sishga dalda beradi va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "So'nggi yillarda iqtisodiyotimizning barcha jabhalariga bozor mexanizmlarini joriy etish borasida jiddiy qadamlar tashlandi. Endigi vazifa - chuqur tarkibiy islohotlar orqali uzoq muddatli barqaror o'sishning poydevorini yaratishdan iborat." [1] Davlat byudjeti xarajatlarining ijtimoiy yo'naltirilganligini saqlab qolgan holda, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, soliq byudjet yukini kamaytirish va davlat sektoridagi muassasalarni byudjetdan tashqari manbalar hisobidan moliyalashtirishni kengaytirish borasida qator islohotlarni amalga oshirish eng zarur masalalardan sanaladi. [2]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 avgustdagi "Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'rida" gi [3] qarori asosida ta'lim va tibbiyot muassasalarida byudjet jarayonining shaffofligini yanada oshirish va uning ustidan jamoatchilik

nazoratini kuchaytirish, byudjetdan moliyalashtirish, hisob va hisobot mexanizmini takomillashtirish, vazirlik va idoralarning bo'ysunuvidagi muassasalarda byudjet intizomini mustahkamlash borasidagi ma'suliyatini oshirish, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari va xalqaro moliyaviy nazorat standartlarini joriy qilish yo'li bilan byudjet qonunchiligini buzish holatlarini oldini olish va profilaktikasiga qaratilgan davlat moliyaviy nazoratining rolini oshirish maqsadida xalq ta'limi tuman bo'limlarida markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari joriy qilindi.

Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari orqali byudjet hisobi va hisoboti tizimini takomillashtirish, asossiz debitor va kreditor qarzdorlikka yo'l qo'ymaslikka, byudjet intizomini mustahkamlashga, byudjet mablag'laridan foydalanish, shu jumladan tovarlar, ish va xizmatlarni xarid qilish samaradorligini oshirish, shuningdek, markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlarining xodimlarini tarkibi mustahkamlanishi maqsad qilib qo'yilgan. Bu esa, markazlashgan buxgalteriya hisobi xizmati tomonidan byudjetdan tashqari mablag'lar hisobini yuritishga oid axborotlarning ochiqligi va ishonchiligi, daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish, muammolarni o'rganish va uslubiyotini takomillashtirishni ta'minlash bo'yicha tizimli izlanishlar olib borish zarurligini keltirib chiqaradi.

Material va metod. Muassasalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hisobotlarni tuzishning oziga xos jihatlarni tashkil etish bo'yicha ko'pgina iqtisodchi olimlar va mutahassislar tomonidan o'zlarining tadqiqotlarida va xalqaro konferensiyalarida fikr va mulohazalarini bildirib o'tganlar. Ular tomonidan buxgalteriya hisobini tashkil etishning holati, hisobini yuritish yuzasidan o'ziga tegishli davrda mavjud holatlar va xususiyatlarni ochib berganlarning eng asosiylari 1-jadvalga muvofiq keltirib o'tiladi.

Buxgalteriya hisobini tashkil etishning holati¹

Mualliflar	Ta'rif
N.Mineeva (2017yil)	Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish holati, hisobotlarni umumlashgan tartiblangan tizimi, moliyaviy natijalar hisobdorlik inventarizatsiya masalalari
V.Shiribokova, N.Volkova, I.Kuznetsova (2022yil)	Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tartibga solishning yagona huquqiy mexanizmini yaratish, moliyaviy hisobotlarni taqqoslash
Volivok Olga (2020yil)	Muassasalarda buxgalteriya xizmatini markazlashtirilgan tizimga o'tkazish orqali xarajatlarni minimallashtirishga va buxgalteriya xizmatlarining samaradorligini oshirish
A.Kravchenko(2002yil)	Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish, buxgalteriya hisobi va hisobotlarining samaradorligiga erishish, xarajatlarni optimallashtirish
S.Mehmonov(2013yil)	Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'larning maqsadli va oqilona sarflanishini ta'minlash va ular bo'yicha tegishli axborotlarni shakllantirilish, buxgalteriya hisobini tashkil etish
M.Ostonokulov(2011yil)	Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish masalalariga maqsadli sarflanishi va nazorati
A.To'ychiyev, A.Ostonokulov, K.Ibragimov, A.Tursunov (2019yil)	Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning ahamiyati, hisobga olishning tartibi va xususiyatlari

Mazkur sohadagi xorijiy va mahalliy olimlarning buxgalteriya hisobini tashkil etishning holati bergan ta'riflarini o'rganish va tahlil qilish asosida biz buxgalteriya hisobini tashkil etishning ahamiyati, hisobga olishning tartibi va xususiyatlari bilan tanishib chiqib, budjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'larning maqsadli va oqilona sarflanishini ta'minlash va ular bo'yicha tegishli axborotlarni shakllantirilishi buxgalteriya hisobini tashkil etish asosida amalga oshirilishi ko'rsatib o'tilgan.[4]

Shuningdek, byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish masalalariga e'tibor qaratish, maqsadli sarflanishi va ularning hisobi hamda nazorati zarurligi asoslangan.[5]

A.To'ychiyev, A.Ostonokulov, K.Ibragimov, A.Tursunov o'z ishlanmalarida byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning ahamiyati, hisobga olishning tartibi va xususiyatlarini yoritib

berganlar. Xususan, byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish tartibi, byudjetdan tashqari mablag'lar harakatini hisobga olish va hisobotlarda aks ettirish, shakllantirish tartiblari yoritilgan.[6]

Xorijlik iqtisodchi olimlardan N.Mineeva o'quv metodik qo'llanmalarida byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish holati, hisobotlarni umumlashgan tartiblangan tizimi, moliyaviy natijalar va muassasalarning hisobotlarini taqqoslashda tushunmovchiliklarning mavjudligi, hisobdorlik inventarizatsiya masalalari ko'rsatib berilgan.[7]

Shu bilan birgalikda, V. Shiribokova, N.Volkova, I.Kuznetsovalar tomonidan byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tartibga solishning yagona huquqiy mexanizmini yaratish lozimligi, moliyaviy hisobotlarni taqqoslashda nomuvofiqliklarning mavjudligi ko'rsatilgan.[8]

¹ Manba: Muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.

Markazlashgan muassasalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hisobotlarni tuzishning oziga xos jihatlarini tashkil etish bo'yicha ko'pgina iqtisodchi olimlar va mutahassislar tomonidan o'zlarining tadqiqotlarida va xalqaro konferensiyalarida fikr va mulohazalarini bildirib o'tganlar. Ular tomonidan buxgalteriya hisobini tashkil etishning holati, hisobini yuritish yuzasidan o'z davrlarida mavjud holatlarni ko'rsatib o'tishgan va takliflar berilgan

Xususan, Baxtiyor Qayumovning ilmiy maqolalarida markazlashtirilgan muassasalarda buxgalteriya tizimini tashkil qilish orqali, boshqaruv xarajatlarini kamayishiga, rejalashtirilgan loyiha va dasturlarning qisqa vaqt ichida amalga oshirilishiga shuningdek, buxgalteriya xizmati ma'lumotlarining yagona ekanligi bilan ajralib turishini ko'rsatib berganlar.[9]

Shuningdek, xorijlik iqtisodchilardan Volivok Olga tomonidan yozilgan ilmiy maqolada muassasalarda buxgalteriya xizmatini markazlashtirilgan tizimga o'tkazish orqali xarajatlarni minimallashtirishga va buxgalteriya xizmatlarining samaradorligini oshishiga yordam beradi deya ta'kidlaganlar.[10]

Shu bilan birgalikda, Aleksandr Kravchenkoning ilmiy maqolasida boshqaruvni isloh qilishning yagona yo'li bu markazlashgan tizimga o'tish kerakligi, markazlashtirilgan tizimga o'tish orqali, byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish, buxgalteriya hisobi va hisobotlarining samaradorligiga erishish mumkinligi, shuningdek, xarajatlarni optimallashtirish va kadrlar masalasini hal qilish imkoniyatini beradi deya ko'rsatib berilgan.[11]

Olimlarning ilmiy izlanishlarini o'rganish natijasida buxgalteriya xizmatini markazlashtirilgan tizim orqali muassasalarda buxgalteriya hodimlarini umumiy shtati sonini qisqartirish hisobiga ish haqi fondini tejashi ta'minlash, soliq yukini pasaytirish, vujudga kelgan debitorlik va kreditorlik qarzdorliklar bo'yicha tashkilot rahbarining aralashuviziz hal etilishi, ma'lumotlarning umumlashganligi, barcha turdagi hisobotlarni tezkor tayyorlash,

buxgalteriya hodimlari uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish va mehnat sharoitlarini baholash uchun mablag' va vaqt sarflashning zaruriyati mavjud emas, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Bugungi kunda byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hisobotlarni tuzishning o'ziga xos jihatlari bo'yicha xususiyatlari batafsil o'rganilgan. Lekin, hozirgi iqtisodiy shart-sharoitlardan kelib chiqib, xalq ta'lim tizimida markazlashtirilgan buxgalteriya qamrab olgan muassasalarda byudjetdan tashqari mablag'larning shakllantirilishi va sarflanishi holatini kuzatish va baho berish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu esa, xalq ta'lim tizimida markazlashgan muassasalarda buxgalteriya hisobini tartibga solishning uslubiyatini takomillashtirish mavzusida izlanish olib borish kerakligidan dalolat beradi.

Munozara. Bizga ma'lumki, byudjet tashkilotlari davlatning belgilangan vazifalarni bajarish uchun tashkil etilgan yuridik shaxs bo'lib, ular o'z faoliyatini amalga oshirish uchun byudjetdan mablag' bilan ta'minlanadi. Har bir byudjet tashkilotiga mablag'lar ajratish davlat byudjetidan tasdiqlangan xarajatlar smetalari asosida amalga oshiriladi. Bulardan tashqari qonunchilikda byudjet tashkilotlariga byudjetdan tashqari mablag'lar manbalaridan shakllantirishga ham ruhsat etilgan. Ya'ni, faoliyat turiga mos mahsulot (ish va xizmatlar) ishlab chiqarishdan tushadigan, vaqtinchalik bo'sh bino va mulklarni ijaraga berishdan tushgan, homiylik, shuningdek, moliya yili (yoki chorak) yakunida byudjet mablag'lari bo'yicha iqtisod qilib qolingan va boshqa mablag'lar hisobiga byudjetdan tashqari mablag'lar shakllantiriladi hamda qonunchilikda belgilangan tartibda sarflanadi. Ular bo'yicha ham belgilangan tartibda daromadlar va xarajatlar smetalari tuziladi va ijrosi amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda davlat byudjeti xarajatlarining 52.2 foizi ijtimoiy sohaga yo'naltirilmoqda. Ayni damda respublikamiz miqyosida 10764 ta xalq ta'lim tizimi muassasalari mavjud bo'lib, umumiy byudjet tashkilotlariga nisbatan 38,8 foizni tashkil etadi. Ijtimoiy sohada faoliyat yuritayotgan

bohqa sohalar bilan xalq ta'lim tizimi muassasalarini solishtirganda, xalq ta'lim muassasalari ulushi ko'p bo'lsada, ularning faoliyatida byudjetdan tashqari mablag'larning ulushi juda past darajada.

Xalq ta'lim tizimi muassasalarida moliylashtirishning asosiy yo'nalishlari bular byudjetdan moliyalashtirish, ota-onalar tomonidan undiriladigan badal pullari va rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridir. Xalq ta'lim tizimi muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari shakllantirilishi va ushbu mablag'larning maqsadli sarflanishi to'g'risida tizimli axborotlarni shakllantirish hamda ular ustidan nazoratni joriy etish uchun normativ-huquqiy hujjatlar asosida ularning hisobi tashkil etiladi. Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha buxgalteriya hisobi bir vaqtning o'zida tegishli g'aznachilik bo'linmasi va byudjet tashkilotlari tomonidan yuritiladi.

Byudjet tashkilotida byudjetdan tashqari mablag'larining aylanishi shartnomalarga asosan tovar yoki ish xizmatlarining sotish bilan bog'liq bo'lgan debitorlik majburiyatlari vujudga keladi, shartnoma majburiyatlarini bajarish uchun mablag'larni hisob raqamlarga kelib tushishi, tovar yoki ish xizmatlarini sotish bilan bog'liq xarajatlar hisobi, yetkazib beruvchi hisob raqamiga buyurtmachi tomonidan kelib tushgan byudjetdan tashqari mablag'iga asosan kreditorlik majburiyatlari vujudga keladi, mol yetkazib beruvchi tomonidan tovar yoki ish xizmatlarining buyurtmachiga yekazishi orqali majburiyatning bajarilishi, bajarilgan majburiyatlar bo'yicha moliyaviy natijalar aniqlanib, moliyaviy hisobotlar tuziladi. Moliyaviy hisobotlarga asosan daromadlar hisoblanadi.

Byudjet tashkilotining byudjetdan tashqari mablag'larning harakati doirasida mablag'larning tushumi va daromadlari budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari yagona g'azna hisobvarag'iga kiritilib, ular mazkur tashkilotlarning daromadlarida aks ettiriladi, Byudjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar sarflanishi boshqa debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar harakati amalga oshirilib, sarflanish yo'nalishlari va maqsadi qonunchilik bilan qat'iy belgilab qo'yilgan. Bu esa, budjet tashkilotlarida mazkur mablag'laming har biri bo'yicha alohida hisobni yuritishni, shakllanishi va sarflanishini qat'iy nazoratga olishni hamda hisobotlarda har birini alohida holda aks ettirishni taqazo etadi. Byudjetdan tashqari mablag'larning daromadi va xarajati o'rtasidagi farqni ya'ni moliyaviy natijani aniqlash orqali mablag'larning maqsadli va samarali sarflayotganligini yoki aksincha holatda ekanligini aniqlash maqsadida moliyaviy natijani ko'rib chiqiladi. Moliyaviy natijani aniqlashda dastlabki bosqich bir moliya yili o'rtasidagi daromad va xarajatlar o'rtasidagi farqni aniqlash orqali moliya yiliga va tashkilotning faoliyatiga baho beriladi. Moliyaviy natijani aniqlash tartibi ketma ketligi, davriyligi 2169-son yo'riqnoma bilan tartibga solinadi.

Xalq ta'lim tizimi muassasalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish, xalq ta'lim tizimiga tegishli bo'lgan markazlashtirilgan buxgalteriyaga qamrab olgan muassasalar va buxgalteriya shtati mavjud bo'lgan xalq ta'limi muassasalarida hisobotlarni tuzishning o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, ular tubdan bir-biridan farq qiladi.

1-jadval

Xalq ta'limi muassasalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hisobotlarni tuzishning o'ziga xos jihatlari²

Buxgalteriya hisobi va hisobotiga oid masalalar	Markazlashtirilgan buxgalteriyaga qamrab olingan muassasalar	Buxgalteriya shtati mavjud bo'lgan xalq ta'limi muassasasida
Buxgalteriya hisobini tashkil etuvchi shaxs	Xalq ta'limi bo'limi mudiri	Muassasaning raxbar

² Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining amalga oshirilishi	Muassasa raxbari, xalq ta'limi bo'limi buxgalteriya xizmati tomonidan	Muassasa raxbari va buxgalter tomonidan
Buxgalteriya hisobini yurituvchi shaxs	Xalq ta'limi bo'limi buxgalteriya xizmati	Muassasaning hisobchisi
Daromadlarning vujudga kelishi va ularni hisobga olish	Daromadlar muassasada vujudga keladi va ularning hisobi markazlashtirilgan buxgalteriya xizmati tomonidan yuritiladi. Lekin,	Daromadlar muassasaning o'zida vujudga keladi va ularning o'zi hisobga oladi.
Debitorlik majburiyatlarning vujudga kelishi va hisob-kitob qilinishi	Debitorlik majburiyatlari muassasada vujudga keladi va markazlashgan buxgalteriya xizmati tomonidan hisobi yuritiladi.	Debitorlik majburiyatlari muassasada vujudga keladi va ularning o'zi tomonidan hisobi yuritiladi
Mablag'larning tushumi va ularning hisobga olinishi	Mablag'lar tushumi muassasa tomonidan shakllantiriladi va markazlashgan buxgalteriya xizmatida yuritiladi	Mablag'lar tushumi muassasa tomonidan shakllantiriladi buxgalteriyada yuritiladi
Xarajatlarning vujudga kelishi va hisobda aks ettirish	Xarajatlar muassasada vujudga keladi, markazlashgan buxgalteriya xizmatida hisobda aks ettiriladi.	Xarajatlar tashkilotda vujudga keladi va buxgalteriyada aks ettiriladi
Kreditorlik majburiyatlarning vujudga kelishi va hisob-kitob qilinishi	Kreditorlik majburiyatlar muassasada vujudga keladi va markazlashgan buxgalteriya xizmati tomonidan hisob-kitob qilinadi	Kreditorlik majburiyatlari tashkilotda vujudga keladi va buxgalteriya tomonidan hisob-kitob qilinadi
Moliyaviy natijaning aniqlanishi va hisobga olish	Moliyaviy natijalar muassasada vujudga keladi hamda markazlashgan buxgalteriya xizmati tomonidan aniqlanadi va hisobga olinadi.	Moliyaviy natijalar muassasa buxgalteriyasi tomonidan aniqlanadi va hisobga olinadi.
Moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish	Moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish markazlashgan buxgalteriya xizmati tomonidan amalga oshiriladi	Moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish buxgalteriya tomonidan olib boriladi


Xalq ta'limi muassasalarida markazlashtirilgan buxgalteriyaga qamrab olingan muassasalar va buxgalteriya shtati mavjud bo'lgan muassasalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hisobotlarni tuzishning oziga xos jihatlari ko'rib chiqilgan. Buxgalteriya hisobini tashkil etuvchi shaxslar, buxgalteriya xizmati va ichki nazorat tizimining amalga oshirilishi buxgalteriya shtati mavjud bo'lgan xalq ta'limi muassasalariga nisbatan amalda teskari jarayonda amalga oshirilib bu jarayonda muassasa rahbari buxgalteriya xizmatiga hisobdor bo'lib qolmoqda. Daromadlarning vujudga kelishi va hisobga olinishi, debitorlik majburiyatlarning

vujudga kelishi va hisob-kitob qilinishi, mablag'larning tushumi va ularning hisobga olinishi, xarajatlarning vujudga kelishi va hisoblarda aks ettirilishi, kreditorlik majburiyatlarning vujudga kelishi va hisob-kitob qilinishi, moliyaviy natijaning aniqlanishi va hisobga olinishi, moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish markazlashgan buxgalteriya qamrab olgan muassasalarda xalq ta'lim bo'limi mudiri va buxgalteriya xizmati tomonidan yuritiladi.

Buxgalteriya shtati mavjud bo'lgan muassasalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish, buxgalteriya xizmati va ichki nazorat tizimining amalga oshirilishi, daromadlarning vujudga kelishi va hisobga

olinishi, debitorlik majburiyatlarning vujudga kelishi va hisob-kitob qilinishi, mablag'larining tushumi va ularning hisobga olinishi, xarajatlarning vujudga kelishi va hisoblarda aks ettirilishi, kreditorlik majburiyatlarning vujudga kelishi

va hisob-kitob qilinishi, moliyaviy natijaning aniqlanishi va hisobga olinishi, moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish muassasaning rahbari, tashkilot bosh hisobchisi, buxgalteriya xizmati tomonidan yuritiladi.



1-rasm. Markazlashtirilgan buxgalteriya hisobi xizmatining ustun va zaif jihatlari³

Markazlashtirilgan buxgalteriya hisobi xizmatining ustun jihatlari o'rganib chiqadigan bo'lsak, vujudga kelgan debitorlik va kreditorlik qarzdorliklar bo'yicha tashkilot rahbarining aralashuvizis hal etiladi, buxgalteriya hodimlarining oylik maoshlari buxgalteriya shtati mavjud bo'gan muassasalarga nisbatan yuqoriligi, markazlashgan buxgalteriya kesmidagi tashkilotlardan yig'ilgan ma'lumotlarning umumlashganligi, buxgalteriya hisobining yagonaligi, yuqori turuvchi tashkilotlar uchun qulay hisoblanadi.

Markazlashgan buxgalteriya xizmatining zaif tomonlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, buxgalteriya va

moliyaviy hisobotlarni shakllantirish uchun ma'lumotlarni o'z vaqtida ololmasligi, buxgalteriya hodimlari ish xajmining ko'pligi va natijada hodimlarning qo'nimsizligi, markazlashgan buxgalteriya kesmidagi tashkilotlardagi asosiy vosita va TMZlarning haqiqiy holati bo'yicha hisobni yuritilishning imkoniyati cheklanganligi, markazlashgan buxgalteriyaga tizimdagi tashkilot rahbarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati yuzasidan hisobdorligi va nazoratni amalga oshirishda qat'iy talablarning mavjud emasligi, byudjetdan tashqari mablag'lar muassasa tomonidan shakllantiriladi. Lekin, ularning sarflanishi mustaqil tarzda amalga

³ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

oshirilishi bo'yicha cheklanish holatlari mavjud.

jihatlari mavjud bo'lib uni quyidagi rasmda ko'rib chiqamiz.

Muassasada buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning o'ziga hos



2-rasm. Muassasada buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning o'ziga hos jihatlari.⁴

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, muassasada buxgalteriya hisobini tashkil etishni o'rganadigan bo'lsak, mablag'lar muassasa tomonidan shakllantiriladi, sarflanishi hamda hisobini o'zi yuritadi, muassasa buxgalteriyasini nazorat qilishni rahbariyat uchun qulayligi, buxgalteriya hisobotlarini shakllantirishda tegishli bo'limlardan ma'lumotlarni olishning tezkorligi, buxgalteriya xizmatlaridan foydalanishning hodimlar uchun qulayligi, buxgalteriya hodimlarining ish hajmining normal holatdaligi, vujudga kelgan debitor va kreditor qarzdorlikni tashkilot buxgalteriyasining o'zida yuritilishi va ularni tezkor bartaraf etish, muassasaning yuqori turuvchi tashkilotlar bilan to'g'ridan-tog'ri muloqoti ustun jihatlari hisoblanadi.

Muassasada buxgalteriya hisobini tashkil etishning zaif jihatlari o'rganadigan bo'lsak, buxgalteriya xizmati hodimi yoki rahbari tomonidan byudjetdan tashqari mablag'larning sarflash bilan bog'liq tegishli qonunchilik hujjatlarini bilmasligi, byudjetdan tashqari mablag'larning qonunchilik darajasini bilsada, o'zboshimchalik bilan mablag'larning sarflanishi, buxgalteriya xizmati tashkil qilinganligi tufayli buxgalteriya bo'limiga qo'yiladigan bir qancha vazifalarni oylik maoshlarining kamligi tufayli to'laqonlik bajarilmasligi, malakali mutaxassislarning yetishmasligi, byudjetdan tashqari daromad va xarajatlarni yuritishda muvofiqlikka e'tibor qaratilmasligi, umumlashgan hisobotlarni shakllantirishda, muassasalarning

⁴ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

hisobotlarini taqqoslashda tushunmovchiliklarning mavjudligi, hisobdorlik inventarizatsiya masalalari to'laqonli ishlamasligi zaif jihatlari hisoblanadi.

Natijalar. Yuqorida qayd etib o'tilgan jihatlarda byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritishning zarurligi, byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tartibga solishning uslubiyatini takomillashtirish lozimligini taqazo etadi.

Bugungi kunga qadar byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'lar hisobi va hisoboti bilan bog'liq maqsad va vazifalar, obyektlar ilmiy jihatdan o'rganilgan. Afsuski, shu kunga qadar markazlashgan buxgalteriya hisobi xizmati tomonidan byudjetdan tashqari mablag'lar hisobini yuritishning maqsadi, vazifalari, obyektlari alohida tadqiqot obyekti sifatida ilmiy jihatdan o'rganilmagan va shu xususiyatlaridan kelib chiqib, tadqiqotlar olib borish zaruriyatini keltirib chiqaradi

Markazlashgan buxgalteriya hisobi xizmati tomonidan byudjetdan tashqari mablag'lar hisobini yuritishning maqsadi – markazlashgan buxgalteriya xizmati foydalanuvchilariga byudjetdan tashqari mablag'larning tarkibi, shakllanishi manbalari va ular bo'yicha sarflanish bo'yicha buxgalteriya hisobi xizmatining ichki va tashqi foydalanuvchilarga zaruriy moliyaviy ma'lumotlar bilan ta'minlash hisoblanadi. Markazlashgan buxgalteriya hisobi xizmatining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobi axborotining ichki foydalanuvchilariga tashkilotning rahbarlari, mutaxassislar, hodimlar kiradi. Markazlashgan buxgalteriya hisobi xizmatining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobi axborotining tashqi foydalanuvchilariga xalq ta'lim bo'limlari, moliya organlari, g'aznachilik bo'limlari, yuqori turuvchi tashkilotlar va boshqalar kiradi.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobi axborotining ichki foydalanuvchilari markazlashgan buxgalteriya hisobi xizmatining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobi axborotining ichki foydalanuvchilaridan farqli

o'laroq, tashkilotning byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasini tegishli byudjet qonunchiligi talablari asosida tashkilot tomonidan tuziladi, tasdiqlanadi, tegishli muassasalarda ro'yhatdan o'tkazdiriladi hamda smetalar ijrosi doimiy nazoratga olinadi va tahlil qilib boriladi. Ushbu jarayonlardan kelib chiqib, markazlashgan buxgalteriya hisobi xizmatining ichki foydalanuvchilarining zaruriy moliyaviy ma'lumotlari tashqi foydalanuvchilar orqali amalga oshirilmoqda. Maqsadni amalga oshirish uchun markazlashgan muassasa tomonidan byudjetdan tashqari mablag'lari hisobining vazifalari ijrosini ta'minlash zarurdir:

1. Markazlashgan buxgalteriya xizmatiga qamrab olingan muassasalarning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobini tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida hisobini yuritish va tashkil etish;

2. Markazlashgan buxgalteriya xizmatiga qamrab olingan muassasalarning byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasini tegishli byudjet qonunchiligi talablari asosida tuzish va tasdiqlash, ro'yhatdan o'tkazish;

3. Markazlashgan buxgalteriya xizmatiga qamrab olingan muassasalarning byudjet tashkilotining byudjetdan tashqari mablag'larning harakati doirasida mablag'larning tushumi va daromadlari xalq ta'lim bo'limining byudjetdan tashqari mablag'lari yagona g'azna hisobvarag'iga kiritilib, ularni mazkur muassasalarning daromadlarida aks ettirish;

4. Markazlashgan buxgalteriya xizmatiga qamrab olingan muassasalarning byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha smetalar ijrosini hujjatlashtirish va hisob registrlarida aks ettirish;

5. Markazlashgan buxgalteriya xizmatiga qamrab olingan muassasalarning byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha tushumlarni daromad sifatida hisobga olish va ularni hisobvaraqlarda aks ettirish;

6. Markazlashgan buxgalteriya xizmatiga qamrab olingan muassasalarning byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha xarajatlarni hujjatlashtirish va hisob registrlari hamda hisobvaraqlarda aks ettirish;

7. Markazlashgan buxgalteriya xizmatiga qamrab olingan muassasalarning byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha moliyaviy natijalarni aniqlash, hisob va hisobot shakllarida aks ettirish;

8. Markazlashgan buxgalteriya xizmatiga qamrab olingan muassasalarning byudjetdan tashqari mablag'lari harakati bo'yicha moliyaviy hisobotlarni tuzish, umumlashtirish va taqdim etish.

Byudjetdan tashqari mablag'lar hisobi bilan bog'liq markazlashtirilgan buxgalteriya hisobi xizmatining obyektlari tarkibiga muassasaning byudjetdan tashqari mablag'lari, debitorlik va kreditorlik majburiyatlari, daromad va xarajatlar, hisob-kitoblar, moliyaviy hisobotlar, moliyaviy natijalar kiritiladi. Muassasaning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan moliyaviy va nomoliyaviy aktivlar, debitorlik va kreditorlik majburiyatlari shakllantiriladi. Nomoliyaviy aktivlar kirim qilinayotganda debitorlik va kreditorlik majburiyatlari bo'yicha hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Bundan tashqari, byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromad va xarajat o'rtasidagi tafovutlar o'rganilib, moliyaviy natijalar aniqlanadi. Byudjetdan tashqari mablag'larning harakati yuzasidan moliyaviy hisobotlar tuziladi.

Daromad bu - muassasaning aktivlari sof qiymatining ortishi, hamda majburiyatlarining kamayishidir. Markazlashtirilgan buxgalteriya hisobi xizmatining vujudga kelishi, to'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblardan, byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armalari mablag'lari bo'yicha daromadlari shakllantiriladi.

Xarajat bu - muassasaning aktivlari sof qiymatining kamayishi hamda majburiyatlarining ortishidir. Markazlashtirilgan buxgalteriya hisobi xizmatining to'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblardan, byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armalari mablag'lari bo'yicha xarajatlar amalga oshiriladi.

Debitorlik majburiyat, deb bajarilgan ish va xizmatlar, xaridor va buyurtmachilarga, soliq, yig'imlar va boshqa

majburiy to'lovlar bo'yicha oldindan to'langan mablag'lar, hodimlarga berilgan bo'naklar bo'yicha tashkilot oldidagi qarzdorlik tushuniladi. Kreditorlik majburiyati-tashkilotning mahsulotlarini sotib olish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha mol yetkazib beruvchilar, soliq va boshqa majburiy to'lovlardan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha hodimlardan qarzdorligi tushuniladi.

Hisob-kitoblar-tashkilot faoliyatini amalga oshirishda yuridik va jismoniy shaxslar bilan debitorlik va kreditorlik majburiyatlari bo'yicha hisoblashuvlari tushuniladi. Moliyaviy natija-bu tashkilotning har bir moliyalashtirish manbalari bo'yicha hisobot davridagi daromadlarva xarajatlarin taqqoslash orqali aniqlanib, xo'jalik faoliyat natijasida o'ziga qarashli mablag'larni sof qiymatining ko'payishi yoki kamayishidir. Moliyaviy hisobot-byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lar harakatining foydalanuvchilar uchun taqdim etiladigan axborot shakli hisoblanadi.

Tizim tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'lar hisobini tashkil etishning nazariy asoslari ikkita yo'nalishda ya'ni markazlashtirilgan buxgalteriya hisobi xizmati va muassasada buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning o'ziga xos jihatlari, shuningdek markazlashgan buxgalteriya hisobi xizmati tomonidan byudjetdan tashqari mablag'lar hisobini yuritishning maqsad va vazifalari, hisob obyektlari budjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'lar hisobini yuritishning maqsadi va vazifalari, hisob obyektlaridan farqlanishi ko'rsatilgan. Shu kunga qadar budjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'lar hisobini yuritishning maqsadi va vazifalari, hisob obyektlari o'rganilib, ko'rsatib o'tilgan, lekin tadqiqot obyekti sifatida yangicha talqin etilmagan. Bu esa bu borada ilmiy izlanishlar olib borish zarurligidan dalolat beradi.

Xulosa. Xalq ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobini markazlashtirilgan buxgalteriya hisobi xizmati tomonidan tashkil etilishi, yuritilishi va moliyaviy hisobotlarning shakllantirilishi

o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi hamda bu bilan bog'liq buxgalteriya xizmatining maqsadi va vazifalari, hisob va hisobot nuqtai nazaridan axborotlarning oshkor etilishiga yo'l qo'yilishi kabi masalalar o'rganildi.

Mustaqil holda yoki markazlashtirilgan buxgalteriya xizmati tomonidan hisob ishlarini yuritish, ayniqsa, muassasalarning byudjet tashqari mablag'lar hisobi va hisoboti bo'yicha o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, afzalliklari va zaif tomonlarini taqqoslash orqali tahlil qilindi. Umuman olganda, markazlashtirilgan buxgalteriya xizmati tomonidan byudjetdan tashqari mablag'lar hisobini yuritishga nisbatan mustaqil holda hisob ishlarini yuritish ijobiy sanalar ekan.

Bizningcha, qayd etilgan holatlar va tahlillar asosida xalq ta'limi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtirishning ulushi nisbatan yuqori bo'lgan hollarda mablag'larni mustaqil boshqarish, tasarruf etish, hisobdorlikni ta'minlash uchun mustaqil buxgalteriya hisobi yuritilishiga imkoniyat yaratish zarur. Buxgalteriya hisobi bilan bog'liq xodimning oylik maoshlarini ushbu byudjetdan tashqari

mablag'lar hisobidan moliyalashtirilishini belgilash orqali, buxgalter uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'larning sarflanishiga hojat bo'lmaydi. Natijada, xalq ta'limi muassasalarida nafaqat, byudjetdan tashqari mablag'lar balki, umumiy holatda buxgalteriya hisobiga oid axborot ta'minotining to'g'riligi va aniqliligi oshishiga, moliyaviy hisobotlarning ishonchiligi ta'minlanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, xalq ta'lim tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish imkoniyatlari va manbalari hamda ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun yetarlicha moddiy texnik ta'minot mavjud. Ushbu imkoniyatlardan oqilona foydalanib xalq ta'lim tizimi muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'larin ko'paytirish orqali davlat byudjeti xarajatlarini va soliq yukini kamaytirishga xizmat qiladi. Xalq ta'lim tizimi muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'larini shakllantirish manbalari va ushbu mablag'larni maqsadli sarflashni ta'minlash uchun qonunchilik asosida ularning hisobini yuritishni takomillashtirib borish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasi". 29.12.2020
- 2.Ostonokulov A.A. "Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalarini shakllantirish va hisobga olish xususiyatlari" "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2018yil
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'rida"gi qarori 2017 yil 21 avgust
- 4.S.U.Mehmonov "Budjet tashkilotlarida buxgalteriyazorati zarurligi a hisobi" Darslik «Sano-standart» nashriyoti Toshkent-2013
- 5.M.Ostonokulov "Byudjet tashkilotlarida yangi buxgalteriya hisobi". O'quv qo'llanma-Toshkent, yangi asr avlodi.480b 2011yil
- 6.To'ychiyev A.J., Ostonokulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S. "Byudjet tashkilotlarida byudjet hisobi" Darslik, "Iqtisod-Moliya"429 bet 2019yil.
- 7.Н.Н.Минева «Основы бухгалтерского учета в органах государственной власти» Учебно-методическое пособие. Екатеринбург Издательство Уральского университета 70стр. 2017год
- 8.Широбоков В.Г., Волкова Н.Н., Кузнецова И.В. «Развитие бухгалтерского учета доходов и расходов в учреждениях государственного сектора экономики, оказывающих услуги в



сфере социального обслуживания населения» Вестник Алтайской академии экономики и права.–2021г.197-207. <https://vaael.ru/ru/article/view?id=1860>

9.Вахтияр Қайумов “Umumta’lim maktablarining xarajatlar smetasini tuzish, ko‘rib chiqish, tasdiqlash va unga o‘zgartirishlar kiritish tartibi” “Moliyachi ma’lumotnomasi” ilmiy jurnali 2021yil 3-soni.

10.Воливок Ольга Александровна “Организация бухгалтерского учета денежных средств в бюджетных учреждениях” УДК 336.1 DOI: 10.26140/knz4-2020-0901-0020: © 2020 SPIN: 6568-8782

11.Александр Кравченко “Централизация бухгалтерского учета: единая учетная политика” Москва Учебно-методическое пособие. Издательство Московского университета 80стр. 2019год

12.Ostonokulov Azamat Abdukarimovich, Abdullayev Nuriddin Isom ugli, & Juraev Nomoz Tursunpulotovich. (2022). ACCOUNTING IN BUDGET ORGANIZATIONS AND IMPROVING FINANCIAL STATEMENT PROCEDURES. World Economics and Finance Bulletin, 7, 81-84. Retrieved from

13.Ostonokulov A.A. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish. ISBN 978-9943-7453-2-2 T.: “VNESHEWESTPROM” nashriyoti, 2021,208 b.

14.A.A.Ostonokulov “Davlat sektoridagi muassasalarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobi uslubiyotini takomillashtirish” Logistika va iqtisodiyot" ilmiy elektron jurnali. (2021 yil I-son.)